“Fizika-2021” Forumi o’tkazildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan 2021-yilning 26-noyabr kuni “Fizika-2021” Forumi o’tkazildi. Ushbu Forum O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligi hamda Davlatimiz Rahbarining “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etildi.











Forum kun tartibida O’zbekistonda yadroviy tadqiqotlar va texnologiyalarning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari, O’zbekistondagi zamonaviy energetika muammolari, fizika o’qitishning zamonaviy metodlari, O’zbekistonda astronomik tadqiqotlarning hozirgi holati va istiqbollari, mexanikaning rivojlanish istiqbollari va uning ishlab chiqarish va qurilish tarmoqlarida qo’llanilishi, Quyosh energiyasi, kimyo sanoati va elektronikada plazma texnologiyalarining potentsial qo’llanilishi, zilzilani tadqiq qilish, oqibatlarini bashorat qilish va ularni kamaytirish choralarini rejalashtirishda fizikaning o’rni va ahamiyati, yangi materiallarni ishlab chiqishda yutuqlar va istiqbolli tadqiqotlar kabi mavzularda ma’ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.

Forumda respulikamiz oliy ta’lim muassasalari – O’zbekiston Milliy universiteti, O’zMU qoshidagi Yarimo’tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent davlat texnika universiteti, Andijon, Namangan, Samarqand, Termiz, Urganch davlat universitetilari, Farg’ona politexnika instituti, MIFI Toshkent filiali professor-o’qituvchilari, yetakchi olimlar, shuningdek, “Uzatom” agentligi, Energetika vazirligi, “Foton”, “Fonon” ishlab chiqarish birlashmalari vakillari offlayn va onlayn ishtirok etishdi.

Forumning o’tkazilishi fizika sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari, yechimini kutayotgan muammolar, kelgusidagi istiqbolli rejalarni o’zaro muhokama qilish imkonini beradi.